



UDK: 821.512.133.09:373.5

**UMUMIY O‘RTA TA’LIM ADABIYOT DARSLIKLARIDA LUTFIY
IJODINING TAQDIM ETILISHI: QIYOSIY TAHLIL VA
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Murodova Sarvinoz Qahramonjon qizi

Samarqand davlat pedagogika instituti,

Tillar fakulteti, o‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 406-guruh talabasi

E-mail: murodova.s@spi.uz

Ilmiy rahbar

Berdiyev Husan Holnazarovich

Annotatsiya. Maqolada XV asr o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili Lutfiy ijodining umumiy o‘rta ta’lim 8–11-sinf adabiyot darsliklarida taqdim etilish holati qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida amaldagi to‘rtta darslikning Lutfiy mavzusiga ajratgan hajmi, mazmuniy tarkibi, savol-topshiriqlar tizimi va kompetensiyaviy yondashuvga muvofiqligi baholangan. Tahlil natijalari Lutfiy biografiyasining bir tomonlama yoritilishi, g‘azallar tanlovining tor doirada cheklanishi, “Gul va Navro‘z” dostonidan parchalarning faqat 9-sinfda berilishi hamda 11-sinfda mavzuga ajratilgan hajmning sezilarli kamayganligi kabi muammolarni ochib beradi. Maqolada darsliklarni davlat ta’lim standarti talablariga muvofiq takomillashtirish va kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish bo‘yicha aniq taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Lutfiy, mumtoz adabiyot, adabiyot darsligi, davlat ta’lim standarti, kompetensiyaviy yondashuv, g‘azal, “Gul va Navro‘z”, qiyosiy tahlil, o‘quv dasturi.



Аннотация. В статье проводится сравнительный анализ представления творчества Лутфи — крупного представителя узбекской классической литературы XV века — в учебниках литературы 8–11 классов общего среднего образования. В ходе исследования оценены объём, содержательная структура, система вопросов и заданий, а также соответствие компетентностному подходу четырёх действующих учебников. Результаты анализа выявляют такие проблемы, как одностороннее освещение биографии Лутфи, узкий выбор газелей, представление отрывков из поэмы «Гуль и Навруз» только в 9 классе и значительное сокращение объёма темы в 11 классе. В статье предложены конкретные рекомендации по совершенствованию учебников в соответствии с требованиями государственного образовательного стандарта и усилению компетентностного подхода.

Ключевые слова: Лутфи, классическая литература, учебник литературы, государственный образовательный стандарт, компетентностный подход, газель, «Гуль и Навруз», сравнительный анализ, учебная программа.

Abstract. The article provides a comparative analysis of how the works of Lutfi — a prominent figure of 15th-century Uzbek classical literature — are presented in literature textbooks for grades 8–11 of general secondary education. The research evaluates the volume, content structure, question-task system, and conformity with the competency-based approach of four current textbooks. The findings reveal problems such as one-sided coverage of Lutfi's biography, a narrow selection of ghazals, the inclusion of excerpts from the poem “Gul va Navruz” only in grade 9, and a significant reduction in the topic's volume in grade 11. The article offers concrete recommendations for improving the textbooks in line with State Education Standard requirements and strengthening the competency-based approach.



Keywords: Lutfi, classical literature, literature textbook, State Education Standard, competency-based approach, ghazal, “Gul va Navruz”, comparative analysis, curriculum.

Kirish

O‘zbek mumtoz adabiyoti yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida, milliy o‘zlikni anglashida va estetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Mumtoz adabiyot namunalarini maktab ta’limida o‘rganish davlat ta’lim standarti (keyingi o‘rinlarda – DTS) talablari bilan belgilangan asosiy yo‘nalishlardan biridir. Ana shu boy adabiy meros silsilasida XV asr o‘zbek she’riyatining yirik vakili — Lutfiy (taxminan 1366–1465-yillar) alohida o‘rin egallaydi. Lutfiy turkiy tilda g‘azal va doston yaratish an’anasining poydevorini qo‘yganligi, “Gul va Navro‘z” dostoni orqali Alisher Navoiyning “Xamsa”siga zamin tayyorlaganligi bilan o‘zbek adabiyoti tarixida tutgan o‘rni mustahkamlagan.

Shu bilan birga, oxirgi yillardagi pedagogik kuzatuvlar va darsliklarning amaliy tahlili Lutfiy ijodini umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida o‘qitishda bir qator muammolar mavjudligini ko‘rsatmoqda. Xususan, biografik ma’lumotlarning yetarli emasligi, g‘azallar tanlovining birtomonlamaligi, savol-topshiriqlar tizimining reproduktiv xarakterda ustunligi va ijodiy yozish topshiriqlarining deyarli yo‘qligi kabi kamchiliklar dolzarb tadqiqot mavzulari hisoblanadi.

Maqolaning maqsadi — amaldagi 8–11-sinf adabiyot darsliklarida Lutfiy ijodining taqdim etilishini qiyosiy tahlil qilish, mavjud kamchiliklarni aniqlash hamda darsliklarni DTS talablari va kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish yo‘llari bo‘yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.



Lutfiy hayoti va ijodiy merosini ilmiy o‘rganish XX asrning ikkinchi yarmida boshlangan bo‘lib, bu sohada A.Qayumov, N.Mallayev, V.Abdullayev va E.Ochilov kabi olimlarning tadqiqotlari muhim o‘rin tutadi. A.Qayumovning “Lutfiy va uning adabiy merosi” monografiyasi shoir hayoti, ijodiy faoliyati va asarlarining badiiy xususiyatlariga bag‘ishlangan eng yirik tadqiqot hisoblanadi [1]. N.Mallayev o‘zining “O‘zbek adabiyoti tarixi” fundamental asarida Lutfiyning Navoiydan keyingi eng yirik shoir sifatida baholagan va “Gul va Navro‘z” dostoning o‘zbek doston yaratish an‘anasidagi o‘rnini ko‘rsatib bergan [2]. E.Ochilov “Lutfiy lirikasi” monografiyasida shoirning g‘azalnavislik faoliyatini, poetik tizimini va badiiy san‘atlarini chuqur tahlil qilgan [3].

Mumtoz adabiyot namunalarini maktab ta‘limida o‘rganish metodikasi yuzasidan U.Hamdamiyov, Q.Yo‘ldoshev, M.Husanboyeva kabi metodist olimlarning ishlari mavjud bo‘lib, ularda kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va ijodiy yozish topshiriqlari tizimi ko‘rib chiqilgan [4; 5]. Biroq mavjud tadqiqotlarda Lutfiy mavzusining bevosita amaldagi darsliklarda taqdim etilishi qiyosiy aspektda yetarli o‘rganilmagan. Bu esa mazkur tadqiqotning yangiligini va dolzarbligini belgilaydi.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlardan foydalanildi: tarixiy-adabiy metod — Lutfiy merosini ilmiy tadqiqotlar kontekstida o‘rganishda; qiyosiy-tahliliy metod — to‘rtta sinf darsligini bir-biri va DTS talablari bilan solishtirishda; kontent-tahlil metodi — darsliklardagi savol-topshiriqlar tizimini baholashda. Tadqiqot empirik bazasini O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan amaldagi 8-sinf (J.Nurmuhammadov va boshqalar, 2022), 9-sinf (D.Quronov, Z.Mamajonov, 2020), 10-sinf (M.Abdullayeva, X.Sarimsoqulov, 2021) va 11-sinf (M.Mirza’anbarova, 2021) adabiyot darsliklari tashkil etdi.



Amaldagi adabiyot darsliklarida Lutfiy ijodi “mumtoz so‘z badiiyati” yoki “XV asr o‘zbek adabiyoti” bo‘limlari doirasida o‘rganilishi ko‘zda tutilgan. To‘rtta darslikning qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatdiki, Lutfiy mavzusining taqdim etilishi sinflar bo‘yicha bosqichma-bosqich rivojlanib boruvchi tartibga ega: 8-sinfda dastlabki tanishuv, 9-sinfda kengaytirilgan o‘rganish, 10-sinfda adabiyot tarixi kontekstida chuqurlashtirish va 11-sinfda umumlashtirish. Biroq bu tartibning amaliy ifodasida bir qator nomutanosibliklar kuzatiladi.

1-jadval

8–11-sinf adabiyot darsliklarida Lutfiy mavzusining qiyosiy tahlili

Sinf	Darslik (mualliflar, yili)	Hajm (bet)	Soat	Mavzu mazmuni	Asosiy kamchiliklar
8-sinf	J.Nurmuhammadov, S.Qambarova va b., 2022	8–10	1–2	Lutfiy hayoti va ijodiy yo‘li; g‘azal janri tushunchasi; 2 ta g‘azal va tuyuqlar matni; g‘azal tahlili bosqichlari	Biografik ma‘lumotlar qisqa; doston berilmagan; topshiriqlar reproduktiv xarakterda
9-sinf	D.Quronov, Z.Mamajonov, 2020	6–8	3–4	Lutfiy biografiyasi (kengaytirilgan); 2–3 g‘azal tahlili; “Gul va Navro‘z” dostonidan parchalar;	Doston parchalari faqat ishqiy epizodlardan tanlangan; ijodiy yozish topshiriqlari kam



				muhabbat va sadoqat mavzusi	
10-sinf	M.Abdullayeva, X.Sarimsoqulov, 2021	5–6	2–3	XV asr adabiyoti kontekstida Lutfiy ijodi; she'riyatning badiiy xususiyatlari; o'zbek adabiy tiliga qo'shgan hissi	Doston faqat eslatib o'tilgan; Navoiy bilan qiyosiy tahlil yo'q; matn tahlili amaliy topshiriqlari yetishmaydi
11-sinf	M.Mirza'anbarova, 2021	2–3	1	Lutfiy merosining Navoiy ijodiga ta'siri; o'zbek adabiyoti tarixidagi umumiy ahamiyati	Mavzuga ajratilgan hajm juda kam; kompetensiyaviy yondashuv yetarli aks etmagan; loyiha ishlari yo'q
Jami:	—	21– 27	7– 10	8–11-sinflarda jami 11 o'quv soati ajratilgan	Doston tahlili 9-sinf bilan cheklangan

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, Lutfiy mavzusiga ajratilgan umumiy hajm va soatlar darsliklar bo'ylab notekis taqsimlangan. Eng katta hajm 8- va 9-sinf darsliklariga to'g'ri keladi, 10-sinfda biroz qisqaradi, 11-sinfda esa keskin kamayadi. Holbuki, aynan yakuniy bosqichda mumtoz adabiy meros bo'yicha



umumlashtiruvchi va kompetensiyalarni baholovchi mavzular kengroq o‘rin egallashi maqsadga muvofiqdir.

Mavzuning tarkibiy tuzilishi tahlili shuni ko‘rsatdiki, Lutfiy g‘azallaridan jami besh-oltita namuna to‘rtta sinf darsligi bo‘ylab takrorlangan holda berilgan. Bu esa shoirning E.Ochilov tadqiqotlarida ilmiy tahlil qilingan 50 dan ortiq g‘azali fonida juda tor tanlov hisoblanadi [3]. “Gul va Navro‘z” dostoni faqat 9-sinf darsligida to‘rt-besh sahifa hajmida berilgan; boshqa sinflarda esa dostonning faqat mazmuni eslatib o‘tilgan. Bunday cheklangan tanlov o‘quvchilarda Lutfiy ijodi haqida yaxlit va chuqur tasavvur shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

Darsliklardagi Lutfiy mavzusiga oid savol-topshiriqlarni Bloom taksonomiyasi asosida tasniflash quyidagi natijalarni berdi: bilim va tushunish darajasidagi (reproduktiv) topshiriqlar — taxminan 65–70 foiz; qo‘llash va tahlil darajasidagi topshiriqlar — 20–25 foiz; sintez va baholash darajasidagi (ijodiy) topshiriqlar — atigi 8–12 foizni tashkil etadi. Bu nisbat amaldagi DTS talablariga zid keladi, chunki standartda kompetensiyaviy yondashuv asosida ijodiy va tahliliy topshiriqlarning ulushi kamida 35–40 foizga yetkazilishi nazarda tutilgan [6].

Topshiriqlar mazmunini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, “g‘azal mazmunini so‘zlab bering”, “shoir hayoti haqida nima bilasiz?” kabi savollar yetakchi o‘rinda turadi. Esse yozish, Lutfiy va Navoiy g‘azallarini qiyoslash, “Gul va Navro‘z” dostoni asosida shaxsiy mulohaza yozish kabi yuqori darajadagi topshiriqlar kam uchraydi yoki umuman keltirilmagan. Bu hol o‘quvchilarda matn yaratish, tanqidiy fikrlash va madaniyatlararo qiyosiy tahlil ko‘nikmalarining yetarli rivojlanmasligiga olib keladi.

Tadqiqotning yana bir muhim natijasi — Lutfiy mavzusining boshqa mumtoz shoirlar mavzulari bilan didaktik bog‘liqligining yetarli ifodalanmaganligidir. Lutfiy va Navoiy ijodi orasidagi adabiy davomiylik, “Gul va Navro‘z” dostonining Navoiy “Xamsa”siga ta’siri, Lutfiy va Bobur she’riyatidagi til xususiyatlarining qiyosi kabi



muhim mavzular darsliklarda alohida-alohida boblar sifatida berilgan, lekin ular orasidagi ko‘prik vazifasini bajaruvchi qiyosiy topshiriqlar deyarli yo‘q. Bu esa o‘quvchilarda XV–XIX asr o‘zbek adabiyotining yaxlit manzarasini shakllantirishga to‘sqinlik qiladi.

Olib borilgan qiyosiy tahlil natijalari quyidagi xulosalarni shakllantirishga imkon berdi:

Birinchidan, amaldagi 8–11-sinf adabiyot darsliklarida Lutfiy ijodi taqdim etilgan bo‘lsa-da, mavzuga ajratilgan hajm sinflar bo‘yicha notekis taqsimlangan. 11-sinfda ajratilgan 2–3 sahifa va 1 o‘quv soati shoir merosining ahamiyatiga mutanosib emas. Tavsiya: 11-sinf darsligida Lutfiy mavzusiga ajratilgan hajmni kamida 5–7 sahifaga, o‘quv soatini 2–3 ga ko‘paytirish; mavzuni umumlashtiruvchi loyiha ishi va yakuniy kompetentlik baholash topshirig‘ini kiritish.

Ikkinchidan, g‘azallar tanlovi tor doirada cheklangan bo‘lib, asosan ishqiy mavzudagi namunalar bilan chegaralangan. Tavsiya: darsliklarga Lutfiy g‘azallarining mavzuiy xilma-xilligini aks ettiruvchi yangi tanlov — falsafiy, ijtimoiy-axloqiy va na‘tiya yo‘nalishidagi 4–6 ta yangi g‘azalni qo‘shish; har bir g‘azal uchun tahliliy va ijodiy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish.

Uchinchidan, “Gul va Navro‘z” dostonining o‘rganilishi faqat 9-sinf bilan chegaralangan. Tavsiya: dostonidan tarbiyaviy g‘oyalarga boy yangi parchalarni 10-sinf darsligiga ham kiritish; doston asosida “Navro‘z timsoli — ideal inson” mavzusida ijodiy yozish topshirig‘ini joriy etish.

To‘rtinchidan, savol-topshiriqlar tizimida reproduktiv tipdagi topshiriqlar ustunligi kuzatiladi. Tavsiya: kompetensiyaviy yondashuv talablariga muvofiq, har bir mavzu bo‘yicha topshiriqlarning kamida 35–40 foizini tahliliy, ijodiy va loyiha xarakteridagi topshiriqlar tashkil etishi; Lutfiy va Navoiy, Lutfiy va Bobur ijodini qiyoslovchi maxsus topshiriqlar bloki kiritilishi lozim.



Beshinchidan, mumtoz shoirlar mavzulari orasidagi didaktik uzviylikni mustahkamlash uchun darsliklarga “XV–XIX asrlarda o‘zbek she’riyatining rivojlanish bosqichlari” kabi umumlashtiruvchi mavzularni kiritish, har bir bobning yakunida qiyosiy tahlil topshiriqlarini joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa

Yuqorida tavsiya etilgan choralar amalga oshirilganida, Lutfiy ijodini maktab ta’limida o‘rganish samaradorligi sezilarli oshadi va o‘quvchilarda mumtoz adabiy merosga nisbatan chuqur, yaxlit va kompetensiyaga asoslangan tushuncha shakllanadi. Bu esa, o‘z navbatida, yosh avlodni ma’naviy jihatdan barkamol shaxslar sifatida tarbiyalash vazifasini bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Qayumov A. Lutfiy va uning adabiy merosi. Toshkent: Fan, 1965. 184 b.
2. Mallayev N.M. O‘zbek adabiyoti tarixi. Toshkent: O‘qituvchi, 1976. 664 b.
3. Ochilov E. Lutfiy lirikasi. Toshkent: O‘zbekiston, 2010. 192 b.
4. Yo‘ldoshev Q., Yo‘ldosheva M. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018. – 280 b.
5. Husanboyeva Q., Niyozmetova R. Adabiyot o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Innovatsion rivojlanish nashriyoti, 2020. – 312 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 6-apreldagi “Umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 187-son qarori. – Lex.uz: <https://lex.uz/docs/3153714>
7. Nurmuhammadov J., Qambarova S., Olimjonov O. va boshqalar. Adabiyot: 8-sinf uchun darslik. – Toshkent: Adast poligraf, 2022. – 256 b.



8. Quronov D., Mamajonov Z. Adabiyot: 9-sinf uchun darslik. – Toshkent: Sharq, 2020. – 240 b.
9. Abdullayeva M., Sarimsoqulov X. Adabiyot: 10-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 224 b.
10. Mirza’anbarova M. Adabiyot: 11-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2021. – 208 b.
11. Hamdamov U. Mumtoz adabiyotda axloqiy tarbiya masalalari. Toshkent: Akademnashr, 2015. 176 b.
12. Navoiy A. Majolis un-nafois // Mukammal asarlar to‘plami: 20 jildlik. 13-jild. Toshkent: Fan, 1997.